XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-017-10-213-K/24 Nurafshon shahri

Nurafshon shahrining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Nurafshon shahri Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 27-dekabrdagi 01-20-401-27-07-37/113-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Nurafshon shahri mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **68 009 550,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **68 009 550,0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Nurafshon shahri mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **307 126,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda shahar mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdori **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek Nurafshon shahri

mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 098,6 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlarga muvofiq tasdiqlansin.

- yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutlaq miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq;

- jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-ilova**ga muvofiq;

- YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori **7-ilova**ga muvofiq;

- 7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **8-ilova**ga muvofiq;

- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

- mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq;

- 2025-yil uchun shahar mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **11-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Eshbayev, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Xolmurodov), shahar soliq inspeksiyasi (J.Sayfiyev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarori ijrosi Nurafshon shahri hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Eshboyev) zimmasiga yuklansin.

10. Mazkur qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (M.Gulomov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy byudjet daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Nurafshon shahri
	JAMI	**68 009 550**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 276 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	17 352 300
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 991 000
	Aksiz solig‘i jami	2 960 160
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	Pivo	*0*
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*2 960 160*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 100 480
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	5 876 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 453 610
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 388 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	525 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 821 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	266 000

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Shahar mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdori

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Nurafshon shahri
	Xarajatlar miqdori, jami	**68 009 550**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*14 883 901*
	shundan:	
	“mening maktabim”	*782 431*
3	Madaniyat bo‘limi	*809 090*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*2 540 494*
5	Sport bo‘limi	*3 848 623*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 642 880*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*1 173 103*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*0*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 327 881*
10	Hokimyat	*25 488 148*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*139 510*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*23 100*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*17 452 144*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*786 520*
	zahira jamg‘armasi	*1 098 583*
11	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*141 334*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*141 334*
	Axborot-kutubxona markazlari	*0*
12	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	*15 154 096*

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Nurafshon shahri mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

Hududlar nomi			Nurafshon shahri
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	6%
Foyda solig‘i	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Pivo	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	24%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	32%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	79%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Shahar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Shahar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Shahar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Shahar byudjetiga		100%

Davlat boji	Shahar byudjetiga	0%
Jarima	Shahar byudjetiga	0%
Yig‘imlar	Shahar byudjetiga	0%

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	Mahallalar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish m’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
	Nurafshon shahri	**1,0**	**5 575,90**	**1,0**	**439,20**
1	Birlik MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
2	Bobur MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
3	Degantepa MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
4	Dexkonobod MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
5	Yoshlik MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
6	Kumarik MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
7	Ma‘rifat MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
8	Mukumiy MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
9	Navruz MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
10	Nurafshon MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
11	Obod MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
12	Obod turmush MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
13	Oybek MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
14	Oppoq MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
15	Taraqqiyot MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
16	Tuy tepa MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
17	Uchkun MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
18	Xurriyat MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
19	Chig‘irik MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
20	Evalak MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
21	Yuksalish MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20
22	Yangibod MFY	1,0	5 575,90	1,0	439,20

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient	Mutloq miqdor *(so‘mda)*
1	Nurafshon shahri	1,00	2 200 000,00

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2025-yilga belgilangan koeffitsientlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari
1	Nurafshon shahri	1,10	1,10	1,10	1,10	1,00

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025-yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob maxsulotlari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
1	Nurafshon shahri	800,00	200,00	200,00	200,00	200,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Nurafshon shahri	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,30	1,30

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	Tuman va shaharlarnomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Nurafshon shahri	1,25	1,15	1,15	1,25	1,25	1,25	1,30

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

ming.so‘mda

T/r	Tuman va shaharlarnomi	II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i, ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025 yil minimal qiymat	kofis-ient	2025 yil stavka	2025 yil minimal qiymat	kofis-ient	2025 yil stavka
1	Nurafshon shahri	5,50	1,30	7,15	11,00	1,30	14,30

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-10-213-K/24 -son qaroriga
11-ilova

2025-yilda shahar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming.so‘mda

№	Hududlar bo‘yicha jami	2025-yil
1	Nurafshon shahri	307 126,0